

## Navoiy viloyat statistika boshqarmasi



### 2018 yil yanvar-dekabr oylarida Navoiy viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


#### RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **22554,2 mlrd. so'mni**, o'sish **3,2 %ni** tashkil etdi
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **-100,6 %**
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **11,5 %**
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **16,1%**

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatimiz korxonalaridan 22554,2 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 103,2 % ni tashkil etdi.

Mahsulotlar ishlab chiqarishning eng katta hajmi ishlab chiqaradigan (qayta ishlaydigan) korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan bo'lib, ularning jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 66,8 % tashkil etdi. Sanoat ishlab chiqarishning oshishiga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalaridan ham munosib hissa qo'shdi, ularning jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 27,3 %, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 100,7 % tashkil etdi.

#### 2018 yil yanvar- dekabr oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi





### **Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.**

Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 6147,8 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 27,3 % ni tashkil etdi.

### **Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).**

2018 yilning yanvar-dekabr oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 15068,2 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 66,8 % ni tashkil etdi.

### **Yanvar-dekabr oylarida Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

2017 yilda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2018 yilda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, % da
<b>Portlandsement, ming tonna</b>			
3571,0		3570,0	100,0
<b>Shifer, tonna</b>			
3349,2		39160,5	11,7 бар
<b>Ammoniy nitrat, ming tonna</b>			
200,2		227,4	113,6

2017 yilda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2018 yilda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, % da
-------------------------------	---	-------------------------------	----------------------

**Temir beton, ming tonna**



33,566

43,305

129,0

**Paxta tolasi, ming tonna**



37,517

18,814

50,1



***Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondititsiyalash.***

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondititsiyalash korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1267,3 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,6 % ni) tashkil etdi.

***Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.***


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 70,9 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,3 % ni) tashkil etdi.




### *Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.*

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 2600,2 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2017 yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 100,6 %, jami sanoatdagi ulushi esa 11,5 % ni tashkil etdi.

### *2018 yilning yanvar-dekabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari*




### ***Yanvar-dekabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, % da***



### ***Shahar va tumanlarning sanoat ishlab chiqarishi.***


Navoiy viloyatida sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p hajim Navoiy shahrida (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 80,6 % ulushini), Karmana (10,8 %), Qiziltepa (2,8 %), Xatirchi (2,0 %), Navbahor (1,3 %), tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### ***2018 yilning yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlarning sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi, %***




Shu bilan birga eng kam ulush Tomdi (0,1 %), Konimex (0,3 %), Uchquduq (0,4 %), Nurota (0,8 %) tumanlari va Zarafshon (0,9 %) shahriga to'g'ri keladi.

**2018 yilning yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlarning jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi o'sish sur'atlari, %**




Raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha yuqori texnologiyali loyihalarni amalga oshirish natijasida Qiziltepa tumani (2017 yilning yanvar-dekabr oylariqa nisbatan 101,4 %), Karmana (134,3 %), Konimex (100,1 tumanlari va Zarafshon (102,1 %), Navoiy (101,1 %) shaharlarida sezilarli darajada ishlab chiqarish hajmining oshishi ta'minlandi.

**2018 yil yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmlari va o'sish sur'atlari**



### 2018 yil yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol tovarlari va o'sish sur'atlari

Aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning tabaqalanishi tahlili Navoiy shahrida (5744.3 ming so'm), Karmana (3848,9 ming so'm), Uchquduq (2077.2 ming so'm) va Qiziltepa (2088,9 ming so'm) tumanlarida o'rtacha ko'rsatkichidan ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.



Shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga o'rtacha iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining yuqori o'sish sur'atlari Karmana tumaniga (2017 yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 117,7 % ga). Shu bilan birga, o'sishning past sur'atlari Navoiy shahriga (98,2 % ga), Nurota (89,9%), Uchquduq (91,5%), tumanlarida va Zarafshon shahrida (90,0%) kuzatildi.




### **Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining ishlab chiqarilishi**


Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 1323,9 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,0 barobarni tashkil etdi.

O'tgan yilda qo'shma korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 3,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, hisobot davrida bu ko'rsatkich 5,9 % ga oshdi.

### **Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, %.**




### **Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, %**



### ***Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.***

2018 yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish keskin faollashdi. Natijada ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining, jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 16,1 % tashkil etmdi.


Shahar va tumanlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi Navoiy shahrida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 3,4 %), Karmana (54,9 %), Navbahor (82,1 %) ,Xatirchi (88,4 %),Qiziltepa (83,0 %), Nurota (99,4 %), Konimex (100,0 %), Tomdi (100,0 %), Uchquduq (99,9 %), tumanlarida hamda Zarafshon shahrida (78,6%) kuzatildi



### **Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari.**

Bugungi kunda viloyatimizda 1809 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 565 tasi Navoiy shahrida, 318 tasi Karmana, 250 tasi Nurota, 198 tasi Qiziltepa, 125 tasi Xatirchi, 92 tasi Navbahor, 71 tasi Uchquduq, 39 tasi Tomdi, 44 tasi Konimex tumanlarida va 107 tasi Zarafshon shahrida joylashgan.

### **2018 yil 1 dekabr holatiga faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni**



Joriy yilning yanvar-dekabr oylari davomida viloyatimizda 377 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo'lib, ulardan 21,5 % Navoiy shahriga to'g'ri keladi.